

O`YIN BOLA TARBIYASINING MUHIM VOSITASI

Qilichova Marhabo Xudoyqulovna

Jizzax davlat pedagogika instituti

“Maktabgacha ta`lim” fakulteti,

“Maktabgacha ta`lim metodikasi” kafedrasi o`qituvchisi

To`lanova Feruzaxon Turgunboy qizi

JDPI “Maktabgacha ta`lim”Fakulteti,

“Maktabgacha ta`lim “ fakulteti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada maktabgacha ta`lim yoshidagi bolalar hayotida oyin` faqat tashqi muxitdagi narsa va xodisalarni bilish vositasi bo`libgina qolmay balki, qudratli tarbiya vositasi ekanligi yoritilgan. Ijodiy va syujetli o`yinlarda maktabgacha yoshdagi bolalarni barcha psixologik xususiyatlari shakllantirishi.. Mana shu nuqtai nazardan o`yin bog`chadagi ta`lim-tarbiya ishlarini yo`lga quyishda asosiy o`rinda ekanliglari yoritib berilgan. Hamda maktabgacha ta`limda o`quv mashg`ulotlarini tashkil etish qanday o`yinlardan foydalanish kerakligi to`g`risida tarbiyachi pedagog faoliyatiga doir tavsiyalar berilgan.

KALIT SO`ZLAR: O`yin faoliyati, vazifalar, rolli o`yin, o`yin shaklida, o`yin soatlari,o`yin jarayoni, sujetli o`yinlar.

ИГРА-ВАЖНЫЙ ИНСТРУМЕНТ ВОСПИТАНИЯ РЕБЕНКА

Киличова Мархабо Худайкуловна

Джизакский государственный педагогический институт

Факультет «Дошкольного образования»,

Преподаватель кафедры «Методика дошкольного воспитания»

Туланова Ферузахон Тургунбой кызы

студентка факультета дошкольного образования.

АННОТАЦИЯ

В данной статье освещено, что игра в жизни детей дошкольного возраста является не только средством познания предметов и явлений внешней среды, но и мощным средством воспитания. Формирование всех психологических особенностей дошкольников в творческих и сюжетных играх.. С этой точки зрения игра является основным направлением в организации учебно-воспитательной работы в детском саду. А также даны рекомендации по деятельности воспитателя-педагога о том, какие игры следует использовать в организации учебных занятий в дошкольном образовании.

Ключевые слова: игровая деятельность, задания, сюжетно-ролевая игра, в игровой форме, игровые часы, игровой процесс, сюжетные игры.

THE GAME IS AN IMPORTANT TOOL FOR RAISING A CHILD

Kilichova Marhabo Khudoykulovna

Jizzakh State Pedagogical Institute
Faculty of Preschool Education,
Teacher of the Department of Preschool Education Methods

Tulanova Ferzakhon Turgunboy qizi
a student of the Faculty of Preschool Education
JSPI Faculty of Preschool Education

Annotation

This article highlights that the game in the life of preschool children is not only a means of cognition of objects and phenomena of the external environment, but also a powerful means of education. Formation of all psychological characteristics of preschoolers in creative and story games.. From this point of view, the game is the main direction in the organization of educational work in kindergarten. And also recommendations are given on the activities of the educator-teacher about which games should be used in the organization of training sessions in preschool education.

Keywords: game activity, tasks, story-role-playing game, in the form of a game, game hours,gameplay, story games.

KIRISH (INTRODUCTION)

O`yin inson o`zligining namoyon bo`lishi, uning takomillashuv usulidir. O`yin kattalar hayotida muayyan o`rin tutar ekan, u bolalar uchun alohida ahamiyatga egadir. Uni «bolalikning hamrohi» deb atash qabul qilingan. U mакtabgacha yoshdagi bolalar hayotining asosiy mazmunini tashkil etadi. Mehnat va ta`lim bilan uzviy aloqada bo`lgan holda etakchi faoliyat sifatida namoyon bo`ladi. Bola shug`ulanadigan ko`pchilik jiddiy ishlar o`yin shaklida bo`ladi. O`yinda shaxsdagi barcha mavjud jihatlar ishga tushadi: bola harakat qiladi, gapiradi, idrok etadi, o`ylaydi. O`yin tarbiyaning muhim vositasi sifatida namoyon bo`ladi. O`yin qadim zamonlardan beri pedagog, psixolog, faylasuf, etnograf, san`atshunos olimlar diqqatini o`ziga tortib kelgan bo`lib, jamiyat hayotida mehnatdan keyin turadi va uning mazmunini belgilaydi. Ibtidoiy jamoa qabilalari o`z o`yinlarida ovchilik, urush, dexqonchilik ishlarini aks ettirganlar. Masalan, o`sha davrdagi ba`zi qabilalarning sholi sepish jarayoni o`yinlar bilan juda katta tantana qilib amalga oshirilar edi.

Y.A.Komenskiy, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko, P.F.Lestgaflarning g`oyalari hozirgi zamon bolalar o`yinlari nazariyasi uchun ham ahamiyatlidir. «Bolalar o`yini ko`p asrlik tarixga ega- deb yozgan edi B.D.Ushinskiy, - insonning o`zi tomonidan ishlab

chiqilgan qudratli tarbiyaviy vosita va shuning uchun ham unda inson tabiatining haqiqiy ehtiyoji ifodalangan». Yan Amos Komenskiy o„yinni bola faoliyatining, uning tabiatini va mayllariga to`g`ri keladigan zarur shakli deb hisoblardi. Uning fikricha o`yin - bolaning barcha qobiliyat ko`rinishlari rivojlanadigan jiddiy aqliy faoliyatdir, o`yinda borliq haqidagi tasavvurlar doirasi kengayadi va boyidi, nutq rivojlanadi. Bola o`yin davomida tengqurlari bilan do`sslashadi. Y.A.Komenskiy o`yinga quvnoq bolalik va bolani uyg`un rivojlanish sfiarti sifatida qarar ekan, kattalarga bolalar o`yinlariga e`tiborli munosabatda bo`lishni, ularga oqilona rahbarlik qilishni masalahat bergen edi. P.F.Lestgail: bolalar o`z o`yinlarida tevarak-atrofdan olgan tasurotlarini aks ettiradilar, deydi. Bunday faoliyat bolaning rivojlanishida katta ahamiyatga egadir. Shunday qilib o`yinning ijtimoiy voqeа ekanligini, o`yinda tevarak-atrofdagi borliq aks ettirilishini ilg`or olim va pedagoglar o`zlarining kuzatish va ilmiy tadqiqotlari orqali isbotlab berdilar. Tarbiyachilar bolalar o`yiniga rahbarlik qilishda quyidagilarga rioya qilishi lozim. Shu tariqa o`yin tarixiy taraqqiyot jarayonida mehnat faoliyati natijasida paydo bo`lgan ijtimoiy faoliyatdir; o`yin doimo haqiqiy hayotni aks ettiradi. Demak, ijtimoiy hayot o`zgarishi bilan uning mazmuni ham o`zgaradi; o`yin ma`lum maqsadga yo`naltirilgan ongli faoliyat bo`lib, uning mehnat bilan ko`p umumiyligi bor va yoshlarni mehnatga tayyorlashga hizmat qiladi.

ASOSIY QISM (MATERIALS AND METHODS)

O`yin faoliyati asosida boladagi o`quv faoliyati rivojlanadi, bola qanchalik yaxshi o`ynasa, ularning maktabga tayyorgarligi shunchalik o`rtib, boradi. Shu o`rinda M.X.Qilichova maktabgacha ta`lim va tarbiya sohasida amalga oshirilgan islohotlarning mazmun mohiyatini hamda maktabgacha ta`lim tashkilotlarida bolalarni tarbiyalashda xorijiy tajribalarning o`ziga xos jihatlarini o`rgangan va ularning izlanishlariga ko`ra, biz qiziq ma`lumotni takidlab ketmoqchiman, mana shu jarayonda maktabgacha ta`lim tashkilotlariga qabul turli davlatlarda turlichay ekan. (1-jadval)

Maktabgach ta`lim tashkilotlariga qabul yoshi
--

O`zbekiston	Germaniya	Yaponiya	Italiya	Xitoy
1 yosh	4 oylik	3 yosh	3 yosh	3 yosh

O`zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta`lim va tarbiya to`g`risida”gi qonunning 34-moddasiga binaoan bolalar yoshlariga qarab guruhlarga ajratilgan. Jumladan, ilk rivojlanish guruhi (bir yoshdan uch yoshgacha), kichik guruh (uch yoshdan to`rt yoshgacha), o`rta guruh (to`rt yoshdan besh yoshgacha), katta guruh (besh yoshdan olti yoshgacha), maktabga tayyorlov guruhi (olti yoshdan yetti yoshgacha). Germaniyada esa bolalarga “nafaqa chiqqan bobo, buvilar nabiralarga qarashi kerak”- degan tushuncha mavjud emas. Shuning uchun ota-onalar farzandlarini 4 oylikdan boshlab bog`chaga berishga majburdirlar. Ko`pgina nemis oilalari farzandlarini ancha erta bog`chaga beradilar. Germaniyada maktabgacha ta`limning 6 xil turi mavjud bo`lib, ular bir-biridan tubdan farq qiladi va rang-barangligi bilan boshqa davlatlarnikidan ajralib turadi

Ilk yoshli bolalar o`yin faoliyatining birinchi bosqichi tanishtiruvchi o`yin bo`lib, unarsa, buyum, o`yin faoliyatidir. Uning mazmuni qo`l ishidagi murakkab va nozik harakatlardir. Keyingi bosqich aks ettirish o`yini hisoblanadi. Bu ilk yoshli bolalar o`yini psixologik mazmunining rivojlanishida eng yuqori nuqta hisoblanadi. Kattalar ta`lim-tarbiyaviy ishlarini ma`lum izchillik bilan olib borsalar, bu yoshdagagi bolalar narsa va buyumlar nomini, nimaga ishlatilishini bilib oladilar va bu yangi bilimlarni o`z o`yinlarida qo`llay boshlaydilar. Bu yoshdagagi bolalar o`yini mazmuni jihatidan predmetli faoliyatni aks ettiradi. Birinchi yoshning oxiri va ikkinchi yoshdagagi bolalar o`yinida syujetni aks ettirish yuzaga keladi. Bola qo`lidagi buyum bilan undan qanday foydalanish keraqligini aks ettiradi. Navbatdagi bosqich rolli o`yin bo`lib, unda bulalar o`zlariga tanish bo`lgan kattalar mehnati va kishilarning ijtimoiy munosabatilarini aks ettiradilar. Bolalar o`yin faoliyatining bosqichma-bosqich rivojlanishi to`g`risidagi ilmiy tasavvurlar har xil yosh guruhlarida bolalarning o`yin faoliyatiga rahbarlikning aniq sistemali tavsiyalarni ishlab chiqish imkoniyatini yaratdi. Shunday qilib maktabgacha ta`lim muassasalarining pedagogik jarayonda o`yinning tutgan o`rnini juda katta bo`lib, o`yindan maktabgacha

yoshidagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta`lim berishda keng foydalaniladi. Zero: o`yin bolalarning mustaqil faoliyati bo`lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo`ladi; o`yin bolalarni har tomonlama tarbiyalash vositalaridan biridir; o`yin bolalarga ta`lim va tarbiya berishning metod va usulidir; o`yin bolalarni o`quv faoliyatiga tayyorlash vositasidir. Taniqli pedagog olimlarning olib borgan tadgigotlari o`yinga kompleks rahbarlik qilish orqali bolalarga o`yining mazmuni, tashkil etilishi, tuzilishi, bolalarning axloqiy munosabatlari, bolalar o`yinining rivojlanish darajasiga ta`sir etish mumkinligini ko`rsatdi. Bolalar o`yini uning mazmuni, xususiyati, tashkil etilishiga ko`ra xilma-xildir. Bolalarni nutqini rivojlantirish uchun quydagи o`yinlarni o`tkazish mumkin: "So`z qo`sh", "Orkestr", "Jvlana bu tovushga so`z top...". "So`zlardan hikoya tuz" va h.k. Yuqorida sanab o`tilgan jamoa o`yinlaridir. Qo`g`irchoqdan tashqari har xil xayvonlar, qushlar, idish-tovoqlar, va transportni aks ettiruvchi o`yinchoqlar ham bo`lishi kerak. MTTda tevarak-atrof bilan tanishtirish dasturiga muofiq bir qancha rasmlar turqumi bo`lishi kerak: kishilarning polizdagi, uy sharoitidagi mehnatini aks ettiruvchi, ularning mehnatini engillatuvchi mashinalar rasmlari; qishilarning turar joylarini aks etiruvchi rasmlar; V) qishilarni suvda, quriqlikda, havoda olib yuruvchi vositalarning rasmlari; G) uy jixozlari: idish-tovoq, mebel, madaniyat buyumlari, bezakli buyumlar, o`yinchoqlar; dasturxon, choyshab, sochiq, yostiq jildi, qishki, yozgi, bahorgi, kuzgi ko`ylaklar, bosh kiyim, yil fasllariga qarab kiyiladigan oyoq kiyimlar; YE)iste`mol mollari; sabzavotlar, mevalar, uy maxsulotlari, shirinliklar; J) uy va yovvoyi xayvonlar; Z) daraxtlar, butalar, gullar va boshqa o`simliklar; I) qushlar. Bu rasmlar asta-sekin to`planib boriladi. Ular yirik (15-20sm) va karton qog`ozlarga yopishtirilgan bo`lishi kerak. Didaktik o`yinlarda tabiat materiallari va oddiy narsalar ham ishlatiladi. Didaktik o`yinlarga maxsus o`rin ajratilishi va bolalar kun tartibidan ma`lum joy olishi kerak. Didaktik o`yinlarni mashg`ulot bilan bog`lab olib borishni yaxshilab o`ylab amalga oshirish lozim. Bu o`yinlar mashg`ulot va o`yin soatlarida o`tkaziladi. Ularni butun guruh bolalari bilan ham o`tkazish mumkin. O`yinchok bola hayotining yo`ldoshi , uning quvonch manbaidir. U nafaqat o`yin quroli, balki bolalar o`yinida sherik, o`rtoq, kattalar qo`lida esa tarbiyaning muhim qurollaridan biridir. O`yinchoq o`yin yaratishda ishtirok etadi, bolaning o`ziga xos sherigi sifatida namoyon bo`ladi, uning shaxsiga katta ta`sir o`tkazadi. U bolaga shunchalik yaqinki, bola

o`z o`yinchoqlarini sevadi, ularga bog`lanib qoladi, shu tufayli u o`zini atrofdagi hayotning to`laqonli a`zosi deb hisoblaydi. Didaktik o`yinlarda majburiy qoidalar juda ko`p uchraydi: navbat bilan harakat qilish, faqat so`raganda javob berish, o`rtog`iga quloq solish, o`ynaganda boshqalarga xalaqit bermaslik, qoidani bajarish. O`z ayibiga iqror bo`lish va hakazo. Didaktik o`yinlarda bolalarning o`ziga xos hususiyatlari hisobga olinadi. Bir xil bolalarga qiyin topishmoq aytilsa, boshqasiga engilrog`i, osonrog`i aytildi; yomon gapiradigan bolalar ko`proq gapirishga jalg qilinadi. Buning uchun o`yinni o`tkazishdan avval hamma bolalarni yaxshilab eslab, o`yining imkoniyatlarini harakatlariga qarab topishmoq beriladi, ba`zi bir faolroq bolalarga boshqalarni qiziqishini bo`g`maydigan rol biriktiriladi. Didaktik o`yinga rahbarlik qilishda o`yining maqsad va mazmunini belgilash, o`yin g`oyasini o`ylab topish, o`yin qoidasi va asosiy harakatlarni tushuntirish, bolalar o`rtasidagi munosabatni yaxshilash, tarbiyaviy ta`sir orqali o`yinni borishga rahbarlik qilib borish va boshqalarni o`z ichiga oladi. Didaktik o`yinni bolalarning bergan savollari, takliflari va tashabbuslariga qarab, o`yin jarayonida kutilmaganda kengaytirish, uning mazmunini boyitish mumkin. O`yinni belgilangan vaqtda boshlash va tugatish katta maxoratdir. Tarbiyachi o`yin vaqtini o`zining tushuntirishini kamaytirish hisobiga qiziqtiradi. O`yinni tarbiyachi bolalarda o`yinga qiziqish uyg`otgan holda tugatishi kerak, ya`ni bolalar shu o`yinni yana davom ettirishni xoxlab qolsinlar. Bir qaraganda bu muammo arzirnas narsa bo`lib tuyulishi mumkin. Lekin, har qaysi go`dak ilk bor olamni o`z atrofidagi o`yinchoqlar orqali anglashini inobatga oladigan bo`lsak, ularning inson tarbiyasidagi o`rni beqiyos ekanligi ayon bo`ladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR (RESULTS AND DISCUSSIONS)

Maktabgacha yoshdagi bolalarning etakchi faoliyati bu o`yindir. Bog`cha yoshidagi bolalarning o`yin faoliyati masalasi asrlar davomida juda ko`p olimlarning diqqatini o`ziga jalg qilib kelmoqda. Bog`cha yoshidagi bolalar o`zlarining o`yin faoliyatlarida ildam qadamlar bilan olg`a qarab borayotgan sermazmun hayotimizning hamma tomonlarini aks ettirishga intiladilar. Bolalarning o`yinlari orqali ularda ijtimoiy foydali, ya`ni yuksak insoniy xislatlarni tarbiyalash mumkin. Bundan tashqari, agarda biz bolalarning o`yini

faoliyatlarini tashqaridan kuzatsak, o`yin jarayonida ularning barcha shaxsiy xislatlari (kimning nimaga kuproq qizikishi, qobiliyati, irodasi temperamenti) yaqqol namoyon bulishini kuramiz. Shuning uchun bolalarning o`yin faoliylari ularni individual ravishda o`rganish uchun juda qulay vositadir. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar odatda o`zlari yolg`iz o`ynaydilar. Predmetli va konstruktorli o`yinlar orqali bu yoshdagi bolalar o`zlarining idrok, xotira, tassavur, tafakkur hamda xarakat layokatlarini rivojlantiradilar. Syujetli rolli o`yinlarda bolalar asosan o`zlari har kuni ko`rayotgan va kuzatayotgan kattalarning xatti –xarakatlarini aks ettiradilar. O`yin faoliyati bolalarni insoniyatning ijtimoiy tajribasini egallashning faol shakli bo`lgan ta`lim faoliyatiga tayyorlaydi. Ko`pchilik psixologlar hamda pedagoglar o`yinning psixologik masalalari bilan bevosita shug`ullanib, o`yinlarning bolani psixik kamol toptirishdagi ahamiyatiga alohida to`xtalib o`tganlar. Ma`lumki, o`yin bola uchun voqelikni aks ettirishdir. Bu voqelik bolani qurshab turgan voqelikdan ancha qiziqarlidir. O`yinning qiziqarliligi uni anglab etishning osonligidadir O`yin faoliyati bolalarni insoniyatning ijtimoiy tajribasini egallashning faol shakli bo`lgan tahlim faoliyatiga tayyorlaydi. Odam birdaniga ijtimoiy tajribani o`zlashtirishga kirisha olmaydi. Ijtimoiy tajribalarni faol egallash uchun odam avvalo etarli darajada nutqni egallagan bo`lishi, ma`lum malakalar, o`quvlar va elementar tushunchalarga ega bo`lishi kerak bo`ladi. Bularga bola o`yin faoliyati orqali erishadi. Ma`lumki, bolalarning asosiy vaqt o`yin bilan o`tadi. O`yin maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanishining muhim vositasi, ularning asosiy faoliyati bo`lib hisoblanadi. O`yin jarayonida bola shaxsi faoliyat sub`ekti sifatida shakllana boshlaydi. O`yin uzoq davrlardan beri mashhur olimlar, pedagog psixologlar, faylasuflar, sotsiologlar, etnograflar va madaniyat arboblari diqqatini o`ziga qaratib kelingan dolzarb mavzudagi muamolardan biridir.

XULOSA (CONCLUSION)

Shunday qilib o`yinning ijtimoiy voqeа ekanligini, o`yinda tevarak-atrofdagi borliq aks ettirilishini ilg`or olim va pedagoglar o`zlarining kuzatish va ilmiy tadqiqotlari orqali

isbotlab berdilar. Tarbiyachilar bolalar o`yiniga rahbarlik qilishda quyidagilarga rioya qilishi lozim.

1. o`yin bilan mehnat o`rtasida to`g`ri munosabat o`rnatish
2. o`yinda bolalarning bo`lajak mehnat axliga xos bo`lgan jismoniy va ruhiy sifatlarini tarbiyalash.

Shu tariqa o`yin tarixiy taraqqiyot jarayonida mehnat faoliyati natijasida paydo bo`lgan ijtimoiy faoliyatdir; o`yin doimo haqiqiy hayotni aks ettiradi. Demak, ijtimoiy hayot o`zgarishi bilan uning mazmuni ham o`zgaradi; o`yin ma`lum maqsadga yo`naltirilgan ongli faoliyat bo`lib, uning mehnat bilan ko`p umumiyligi bor va yoshlarni mehnatga tayyorlashga hizmat qiladi. O`yin faoliyati asosida boladagi o`quv [faoliyati rivojlanadi](#), bola qanchalik yaxshi o`ynasa, u mакtabda shunchalik yaxshi o`qiydi. Ilk yoshli bolalar o`yin faoliyatining birinchi bosqichi tanishtiruvchi o`yin bo`lib, u narsa-buyum-o`yin faoliyatidir. Uning mazmuni qo`l ishidagi murakkab va nozik harakatlardir. Keyingi bosqich aks ettirish o`yini hisoblanadi. Bu ilk yoshli bolalar o`yini psixologik mazmunining rivojlanishida eng yuqori nuqta hisoblanadi. Kattalar ta`lim-tarbiyaviy ishlarini ma`lum izchillik bilan olib borsalar, bu yoshdagagi bolalar narsa va buyumlar nomini, nimaga ishlatalishini bilib oladilar va bu yangi bilimlarni o`z o`yinlarida qo`llay boshlaydilar. Bu yoshdagagi bolalar o`yini mazmuni jihatidan predmetli faoliyatni aks ettiradi.

SHunday qilib MTMning pedagogik jarayonda o`yining tutgan o`rni juda katta bo`lib, o`yindan maktabgacha yoshidagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta`lim berishda keng foydalaniladi. Zero:

- o`yin bolalarning mustaqil faoliyati bo`lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo`ladi;
- o`yin maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar hayotini tashqil etish shaklidir;
- o`yin bolalarni har tomonlama tarbiyalash vositalaridan biridir;
- o`yin bolalarga ta`lim va tarbiya berishning metod va usulidir;
- o`yin bolalarni o`quv faoliyatiga tayyorlash vositasidir.

Taniqli pedagog-olimlarning olib borgan tadqiqotlari o`yinga kompleks rahbarlik qilish orqali bolalarga o`yining mazmuni, tashqil etilishi, tuzilishi, bolalarning axloqiy munosabatlari, bolalar o`yinining rivojlanish darajasiga ta`sir etish mumkinligini ko`rsatdi.

O`qituvchi: Qilichova Marhabo Xudoyqulovna

To`lanova Feruzaxon Turgunboy qizi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Prezident Sh.Mirziyoyev olimlar va yoshlar bilan fikr almashdi. 31.01.2020.
<https://uza.uz/uz/posts/>
2. Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии.: Издательство: Питер, 2002 г. 720 стр. <http://yanko.lib.ru>
3. Леонтьев А.Н. Проблемы развития психики.: Издательство: МГУ. 1981, С.56
4. Л.С. Виготский Мысления и речь.: Издательство: Питер, Москва. 2017, С.221
5. Djanpeisova G.E., Jo`raeva N.T. Matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi. O`quv-uslubiy majmua. Toshkent-2018. 20-22-betlar.
6. Xaliquov F, Qilichova M. Maktabgacha ta`lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish usullari. Maktabgacha ta`lim elektron jurnali. Jizzax. 2021.09.11.
7. Qilichova, M. (2021). MAKTABGACHA TA`LIMDA ELEMENTAR MATEMATIK TUSHUNCHALARINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI. *Мактабгача таълим журнали*, 4(Preschool education journal).

8. Kilichova, M. K. (2021). LITTLE FEATURES OF FOREIGN EXPERIENCE IN EDUCATION OF CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(10), 241-246.
9. Qilichova, M. (2021). Maktabgacha ta`lim yoshidagi bolalarni jismoniy rivojlanishining o`ziga xosliklari. *Мактабгача таълим журнали*, 3(Preschool education journal).
10. Qilichova, M. (2021). Maktabgacha ta`lim yoshidagi bolalarning rivojlanish yoshi va o`ziga xos xususiyatlari. *Мактабгача таълим журнали*, 3(Preschool education journal).
11. Qilichova, M. X. (2021). MAKTABGACHA TA`LIM VA TARBIYANING XORIJ DAVLATLARDAGI ILG `OR TAJRIBALARI. *Academic research in educational sciences*, 2(11), 739-74Qilichova, M. X. (2021). MAKTABGACHA TA`LIM VA TARBIYANING XORIJ DAVLATLARDAGI ILG `OR TAJRIBALARI. *Academic research in educational sciences*, 2(11), 739-746.6.
12. Qilichova, M. X. (2021). TA`LIM-TARBIYA JARAYONIGA INTEGRATSION YONDASHUVNING MAZMUNI. *Academic research in educational sciences*, 2(10), 917-921.

Kilichova, M. K. (2021). Issues of formation of ecological knowledge and culture in preschool educational institutions. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 666-670.